Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan "Yer hamda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar bo'yicha 26 raqamli umumiy Sharhda" ayollarning yerga egalik qilishga bo'lgan huquqlarini inkor etish yoki cheklovlar o'rnatish ularga nisbatan diskriminatsiya ekanligi belgilangan. Jumladan, "Sharhda" qayd etilishicha, ayollar uchun yer yashash ehtiyojlarini qondirish va kredit kabi boshqa tovarlar va xizmatlardan foydalanish hamda ishlab chiqarish uchun asosiy manba hisoblanadi. [9, 2-b.]

Shu o'rinda Garvard universiteti ma'ruzachisi, amerikalik akademik olim Marta Alter Chen ayollarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini quyidagicha sharhlaydi. Uning fikricha, ayollarning kasanachilik faoliyati bilan bog'liq quyidagicha faktlar mavjud. Kasanachilar o'z uylaridan yoki unga tutash maydon va binolardan bozor uchun mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlardir. Ushbu faoliyat jumlasiga: tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari; hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish; oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va tayyorlash; elektronika, avtomobil qismlari va farmatsevtika mahsulotlarini yig'ish yoki qadoqlash; tovarlarni sotish yoki xizmatlar ko'rsatish (kir yuvish, soch kesish, kosmetolog xizmatlari) yoki boshqa faoliyatlar qatorida ish yuritish yoki kasbiy ishlarni bajarish. Garchi ularning faoliyati deyarli ko'rinmasdek tuyulsa-da, kasanachilar sanoatning ko'plab tarmoqlarida ishlaydi va ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa Osiyoda ayollar shahar ishchi kuchining muhim qismini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar Janubiy Afrikaning shaharlarida 6 foizdan shaharlarda 14 foizgacha. Shuningdek, Hindistonda ayollar ishchi kuchining 32 foizi uyda ishlaydi va barcha korxonalarining 36 foizi kasanachilikka asoslangan. Kasanachilik asosan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa-da, ko'plab kasanachilar savdo sohasida faoliyat olib boradi. Masalan, Janubiy Afrikada 37 foiz va Buenos Ayresda 23 foiz ayollar kasanachilik bilan shug'ullanadi. Aksariyat mamlakatlarda kasanachilarning aksariyati o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydi, ozchilik qismi esa subpudratchilardir. [12, 282-b.]

Keltirilgan ma'lumotda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala insonlar tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan huquqiy shart-sharoitlar bilan bog'liq. Yuqoridagi statistik ma'lumotlarda keltirilgan miqdorlar asosli hisoblansada, ushbu miqdordagi faoliyatning huquqiy asoslari qay darajada yaratilganligi muhimroq. Ko'plab kuzatuvlar dunyo aholisining iqtisodiy sohada band bo'lgan yumushlarining huquqiy himoyasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababdan kelib chiqib, ularga mulk huquqining himoyasi aspektida yaratilishi lozim bo'lgan huquqiy shart-sharoitlar insonlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishining kafolatlarini ham talab qilishi tabiiydir.

Har qanday davlatda ham xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlarning ichki huquq tizimidagi implementatsiyasining me'yoriy-huquq o'lchovlari samarali ko'rsatkichlarni qayd etmasa yoki davlat ichida ishsizlik va kambag'allik darajasining oshishi kuzatilsa bu demak, fuqarolarga o'z-o'zini band qilish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun huquqiy sharoitlarning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Bizning shaxsiy fikrimizcha ham, Frensis Chenevalning qarashlari mutlaqo haqiqat. Aslini olganda mulkka egalik qilishdan ma'no nima? Undan foydalana olishmi yoki shunchaki egalik qilishning o'zigina nazarda tutilganmi? Egalik qilish uni faqatgina o'z nomida saqlashni ifodalay olishini tushunsak, bu normaning butunlay maqsadsizligini ko'rsatadi. Biroq, mulkka egalik qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima? Shubhasiz, undan foydalanish va uni tasarruf etish orqali ayni shu mulkni ko'paytirish yoki foyda olish orqali inson o'zining farovonligi ta'minlashini nazarda tutadi. Bu natijalarga esa inson iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanmasdan erisha olmasligi ham faktdir. Shunday ekan mulkka egalik qilish huquqini ta'minlanishi zahirida uning orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyat kategoriyalaridan biri hisoblangan insonlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishga bo'lgan huquqini ro'yobga chiqarish maqsadlari yotadi. "Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi"da insonning qadrlanadigan, ta'minlanishi va muxofaza qilinishi shart bo'lgan huquq sifatida mulkka egalik qilish huquqi qat'iy belgilangan. Demak, mulkni tasarruf etish bilan bog'liq foyda olishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish huquqiy jihatdan olib qaraganda insonlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini ro'yobga chiqarishga urinishining yaqqol namunasidir.

**Tadqiqot natijalari tahlili.** *Inson va fuqarolarning iqtisodiy huquqlarining ximoyasiga qaratilgan mintaqaviy hujjatlardagi asosiy kafolatlar.* Yevropa Kengashi tomonidan 1952-yil 20-martda qabul qilinib, 1954-yilda kuchga kirgan "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasining birinchi protokoli" 1-moddasida belgilanishicha:

"Har bir jismoniy yoki yuridik shaxs o'z mulkidan tinch foydalanish huquqiga ega. Hech kim o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas, bundan tashqari, jamoat manfaatlarini ko'zlab, qonunda va xalqaro huquqning umumiy tamoyillarida nazarda tutilgan shartlar bundan mustasno.

Biroq, avvalgi qoidalar davlatning mulkdan umumiy manfaatlarga muvofiq foydalanishni nazorat qilish yoki soliqlar yoki boshqa badallar yoki jarimalar to'lanishini ta'minlash uchun zarur deb hisoblagan qonunlarni qo'llash huquqiga hech qanday tarzda putur etkazmasligi kerak." [13, 519-b.]

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan "Rasmiy tushuntirishlar qo'llanmasida" ushbu moddaga berilgan sharhda keltirilishicha, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga litsenziya olish uchun mulkka egalik talab qilinadi. Ushbu talabning bekor qilinishi 1-sonli Protokolning 1-moddasida kafolatlangan huquqning buzilishi sifatida belgilangan. [14, 14-b.]

Yevropa Kengashi tomonidan berilgan rasmiy sharhda esa mulk huquqi orqali ta'minlanadigan iqtisodiy erkinliklar sanab o'tiladi. Jumladan, sharhda shunday deyilgan: Konvensiya 1-moddasi quyidagilarni kafolatlashni nazarda tutadi: ko'char yoki ko'chmas mulk, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar, masalan, aksiyalar, patentlar, pensiya olish huquqi, ijara huquqi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqi, kasb-hunar bilan shug'ullanish huquqi va boshqalar. [15, 6-b.]

Yevropa Kengashi mulk huquqini insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etib, uning asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat turlarini sud orqali himoyalashni kafolatlaydi.

Bundan tashqari 1961-yilda Yevropa Ittifoqida qabul qilingan "Yevropa ijtimoiy xartiyasi"ning 2 qismi 16-17-moddalari va qayta ko'rib chiqilgan Yevropa ijtimoiy xartiyasi aynan insonlarning mulk huquqi va iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish erkinliklari masalasini qamrab olgan." [16, 41-b.]

1969-yil 22-noyabrda Kosta-Rikaning San-Xose shahrida G'arbiy yarim sharning ko'plab mamlakatlari tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi" 21-moddasida belgilangan qoidaga ko'ra:

"1. Har kim o'z mulkidan foydalanish va undan foydalanish huquqiga ega. Qonun bunday foydalanish va foydalanishni jamiyat manfaatlariga bo'ysundirishi mumkin.

2. Hech kim o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va shakllarda, davlat foydasiga yoki ijtimoiy manfaatlarga ko'ra adolatli tovon to'langanidan keyin hollar bundan mustasno...."[17, 107-b.]

Ushbu norma bo'yicha "Inson huquqlari bo'yicha Amerikalararo sudining qisqacha sharhi: Sud tushuntirishi" qo'llanmasida mulk huquqi bilan bog'liq masala fuqarolarning iqtisodiy farovonlik manbayi ekanligi hamda bu huquqni nafaqat Amerikaning har bir davlati ichki qonuniy muhofazasini tashkil qilishi lozimligi balki, mintaqaviy darajada ham uning himoyasi Amerikalararo sud tomonidan himoya qilinishi kerakligi alohida qayd etilgan. Jumladan belgilanishicha, mahalliy xalqlar tomonidan foydalaniladigan erlar va mavjud resurslardan foydalanish ko'rinishidagi mulk huquqi ularning iqtisodiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan hamda iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanishga imkon yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, ularning mulkga bo'lgan huquqining tan olinmasligi ularning munosib hayot kechirishiga to'sqinlik qilishdir.[18, 67-b.]

AQSHning Vanderbilt universiteti yuridik fanlar doktori, professor Jeyms V. Eliy Jr. "Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi"ni sharhlashga qaratilgan "Amerika tarixida mulk huquqlari" maqolasida e'tirof etib aytadiki, darhaqiqat, iqtisodiy erkinlik huquqi va mulkka bo'lgan shaxsiy huquq o'rtasida asosiy o'zaro bog'liqlik mavjud. Ikkalasi ham bir-birovisiz ma'noga ega bo'lolmaydi. Mulk huquqi asosiy inson huquqlari ekanligi uzoq vaqtdan beri e'tirof etilgan hamda bu huquq kishilarning iqtisodiy mustaqilliklarini saqlashga yordam beradi. Muallif fikrlarini davom ettirib mulk huquqining tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlovchi omil ekanligini qayd etib, mazkur qarash bo'yicha bir qator olimlarning fikrlarini keltiradi. Masalan, mashhur siyoatchi va davlat arbobi Edmund Burkdan keltirilgan iqtibosda: "Mulkka qarshi qonun – sanoatga qarshi qonundir." – deya qayd etilgan. Jon Lokkning mulk masalasida quyidagicha qarashi keltirilgan: "Xususiy mulk tabiiy huquq ostida siyosiy hokimiyat o'rnatilishidan oldin mavjud bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, hukumatning asosiy maqsadi tabiiy mulk huquqlarini himoya qilishdir."

Boshqa bir ameriklik amaliyotchi sudya Uilyam Paterson shaxsiy faoliyati davomidagi kuzatuvlarini umumlashtirib shunday deydi: "Mulkni sotib olish, egalik qilish va uni himoya qilish insonning tabiiy, tug'ma va ajralmas huquqlaridan biridir. Fuqarolar mulkiy tuyg'uga ega, mulk ularning tabiiy istaklarini qondirish uchun zarurdir; mulkning xavfsizligi insonlarni jamiyatda birlashishga undagan ob'ektlardan biri edi. Hech kim halol mehnati qadrlanmagan, iqtisodiy faoliyati samarasidan bahramand bo'lmagan jamiyatda yashamagan bo'lardi. Shunday qilib, mulkni saqlash asosiy ob'ekt hisoblanadi."[19, 154-b.]

Yana bir Amerika sud pretsedenti bo'yicha manbada boshqalar mulkni instrumental dalillar bilan himoya qiladilar. Ular uchun intensiv xususiy mulk huquqlari himoya qilinishi kerak, chunki ular tadbirkorlikni rag'batlantiradi degan fikrlar bayon qilingan.[20, 3-b.]

1981-yil 27-iyunda qabul qilingan "Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika Xartiyasi"ning (Banjul Xartiyasi) 14-moddasida:

"Mulkka egalik qilish huquqi kafolatlanadi. Ushbu huquq faqatgina jamoat ehtiyojlari yoki jamiyatning umumiy manfaatlarini ko'zlab, tegishli qonunlar qoidalariga muvofiq ravishda cheklanishi mumkin".

21-moddasida belgilanishicha:



“1. Barcha o‘z boyliklari va iqtisodiy resurslarini erkin tasarruf etishlari kerak. Bu huquq faqat xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi. Hech qanday holatda xalq undan mahrum bo‘lmaydi.

2. Mulki talon-taroj qilingan taqdirda, mulkdan mahrum bo‘lgan shaxslar o‘z mulkini qonuniy ravishda undirish, shuningdek, tegishli kompensatsiya olish huquqiga ega.

3. Boylik va tabiiy resurslarni erkin tasarruf etish o‘zaro hurmat, teng almashish va xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish majburiyatiga zarar etkazmasdan amalga oshiriladi.....”[21, 62-b.]

Afrika Xartiyasidagi mulk tushunchasi “egalik qilish mumkin bo‘lgan har qanday moddiy narsa”, shuningdek, “shaxsning meros sifatida olishi mumkin bo‘lgan har qanday huquq” va “mulkni qo‘lga kiritishni qonuniy himoya qilish” kabi talqin qilingan. “Moddiy” mulkka kelsak, bu tushuncha ishlar “televizorlar, poyabzallar, qo‘l soatlari va kiyim-kechak” bilan bog‘liq tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Daromad ham mulk bo‘lishi mumkin.[22, 367-b.]

Inson huquqlari bo‘yicha Afrika Komissiyasining inson huquqlari to‘g‘risidagi Afrika xartiyasi qoidalarini amalda qo‘llashning “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish bo‘yicha Nayrobi prinsiplar va ko‘rsatmalari”da davlatlar uchun minimal asosiy majburiyatlar mavjud bo‘lib, ular qullikni va majburiy mehnatni ta‘qiqlashni; uyushmalar erkinligi, shu jumladan, jamoaviy muzokaralar, ish tashlash huquqi va kasaba uyushmalari huquqlarini ta‘minlash; bandlik bo‘yicha milliy strategiyalar va harakatlar rejalarini qabul qilish; “biznes boshlash uchun qulay ijtimoiy muhit”ni rag‘batlantirish va yoshlarni ish bilan ta‘minlash uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi.[23, 22-b.]

Ko‘rsatmada davlatlar majburiyati sifatida xususiy yoki davlat sektorida fuqarolarning milliy biznes faoliyatini va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga “rag‘batlantirishi” kerakligi hamda buni kredit berish orqali ham amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan.[22, 367-b.]

Davlatlar zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish o‘z navbatida ichki huquq tizimida ayni shu masala bo‘yicha tashkiliy-huquqiy asoslarni mustahkamlashni talab qiladi. Yana bir masala shuki, kishilarning yerga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash ham ularga o‘zlarining biznes rejalarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishni taqozo qiladi. Ahamiyatli jihati, insonlar tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun yerga va undan uzviy ajralmagan suv resurslariga ehtiyoji bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishning turli tarmoqlarda yo‘lga qo‘yilishi yuqorida aytilganidek, mavjud resurslardan teng va to‘sqinliksiz foydalanish orqali ro‘yobga chiqadi.

1995-yil 26-may Minsk shahrida bo‘lib o‘tgan davlat rahbarlari uchrashuvida qabul qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining “Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi konvensiyasi” 26-moddasida mulk huquqi masalasida quyidagi qoida belgilangan:

“Har bir jismoniy yoki yuridik shaxs mulk huquqiga ega. Hech kim davlat manfaatlarini ko‘zlab, sud tartibida hamda milliy qonunchilikda va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillarida nazarda tutilgan shartlardan tashqari o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.”[24]

Ushbu konvensiyadan ikki yil o‘tib 1997-yilda MDH davlatlari tashkilotga a‘zo davlatlar ichida hamda o‘zaro mintaqaviy maydonda kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “MDHga a‘zo davlatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish to‘g‘risida” shartnoma imzolangan. Shartnomaning 2-moddasida iqtisodiy hamkorlik, bozor munosabatlarini rivojlantirishni, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda kichik biznes va tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rolini oshirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Shundan kelib chiqib, davlatlararo va milliy darajada fuqarolarga kichik biznesni boshlashga yetarlicha infratuzilmani yaratish,

tadbirkorlik bilan shug'ullanishni rag'batlantirish, kichik biznes faoliyatini tartibga solishning huquqiy bazasini yaratish asosiy majburiyatlar qatorida sanab o'tiladi.[25, 2-b.]

Ma'lumki, tashkilotga a'zo davlatlarning milliy huquq tizimida ayni shu masala bo'yicha ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimida ham fuqarolarni tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini amalga oshirish uchun aholi o'rtasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ko'plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan, milliy huquqiy baza shakllantirilgan.

Shu o'rinda 2000-yil 7-dekabrda e'lon qilingan Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlar Xartiyasiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Ushbu mintaqaviy hujjat Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar milliy qonunchiligi uchun bajarilishi lozim bo'lgan huquqiy normalar hisoblanadi. Xartiyaning 16-moddasida: "Hamjamiyat qonunchiligi va milliy qonunlar hamda amaliyotlarga muvofiq har kimga tadbirkorlik yuritish erkinligi tan olinadi" - deya qayd etilgan.[26, 269-b.]

Normaning sharhiga to'xtalsak, Yevropa Ittifoqining har bir davlati o'z fuqarolariga tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini e'tirof etishi va uni amalga oshirish uchun yetarlicha tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratib berishi lozim bo'ladi. Ushbu norma fuqaro va davlat o'rtasida nafaqat fuqaroning mulkka egalik qilish huquqini mustahkamlashni balki, tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini amalga oshirish uchun qonun va qonunosti hujjatlarni yohud strategiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Umuman olganda Yevropa Ittifoqida tadbirkorlik bilan shug'ullanish masalalarida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish chora-tadbirlari yotadi.

Shu o'rinda musulmon olamida 2004-yil 22-mayda Arab Davlatlari Ligasi Kengashi tomonidan qabul qilingan hamda 2008-yildan kuchga kirgan "Inson huquqlari bo'yicha Arab Xartiyasi" 31-moddasiga e'tibor qaratsak:

"Har kim kafolatlangan xususiy mulkka egalik qilish huquqiga ega va hech qanday holatda o'z mulkining to'liq yoki biron bir qismidan o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda mahrum qilinishi mumkin emas." [27, 47-b.]

Islomda mulk tushunchasining ta'rifiga ko'ra, mulk – bu, asosiy foydalanish qiymatiga ega bo'lgan narsa, aktiv yoki resurs, hamda u ayirboshlash qiymatiga ega bo'lishi ham mumkin.[28, 95-b.]

Arab davlatlar ligasiga a'zo davlatlar fuqarolarining mulkiy huquqlarini hurmat qilish va ularni ta'minlashda ancha mukammal tizim shakllangan. Islomda mulk huquqi bu kishining birinchi navbatda savdo va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun asos sifatida ko'riladi. Mulk huquqlari islomda juda ham ehtiyotkorlik bilan himoya qilingan huquqlardan biri hisoblanadi. Islom fiqhida insonlarning mulkka egalik qilishi bilan bog'liq alohida tartib-taomillar mavjud hamda bu tartib taomillarni amalga oshirishning usul va vositalari ham ko'rsatib o'tilgan. Arab davlatlar ligasiga a'zo davlatlarda diniy qoidalar iqtisodiy sohada ko'p jihatdan amalda qo'llaniladi.

Islom shariatida islom diniga ergashuvchilarni samarali faoliyat bilan shug'ullanishga va iqtisodiy farovonligini yaxshilash uchun qonuniy pul daromadlarini olishga undaydigan ko'plab buyruqlar mavjud. Masalan, shariat barcha insonlar uchun mehnat qilish va ulardan foyda olishni ilohiy burch ekanligini taqozo etadi. Shunday ekan shaxs mulkka, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalariga ko'plab qonuniy vositalar orqali ega bo'lishi mumkin. Islom dini o'z axloqiy me'yorlari doirasida har bir insonning iqtisodiy farovonligini oshirishga intilayotganligi sababli, u insonni samarali iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga va o'ziga tegishli bo'lgan barcha resurslardan foydalanishga undaydi.[29, 78-b.]

Hozirgi kunda xalqaro hamjamiyatda insonlarning iqtisodiy huquqlariga nisbatan juda ham chalkash vaziyat mavjud. Ayrim davlatlarda insonning iqtisodiy huquqlari siyosiy

huquqlar bilan aralashib ketgan yoki xalqaro hujjatlarda belgilangan erkinliklarni milliy qonunchilikda aks etmaganligi ham bor haqiqat.

Jeyms V. Eliy Jrning iqtisodiy erkinlik huquqi va mulkka bo'lgan shaxsiy huquq o'rtasida asosiy o'zaro bog'liqlik mavjudligi haqidagi qarashlari bizning ilmiy izlanishlarimiz mazmun-mohiyatiga asosan mos keladi. Chunki, insonning faqatgina bir moddiyatga nisbatan vakolati uni shu moddiyatning mohiyatidan tiyib turuvchi boshqa huquqiy chegara bilan chegaralanmasligi aksincha, u bilan bog'liqlikni tashkil etishi lozim.

Uilyam Patersonning fikrlarini e'tirof etgan holda aytishimiz mumkinki, mulkka eshaliq qilish va undan foydalanish faqatgina shu vakolatlarning o'zi bilan cheklanib qolmasdan balki shu jarayonlar orqali jarayonning boshqa tarkibiy qism vakolatlar uyg'unligida amalga oshiriladigan bir butun yahlit insonning tadbirkorlik bilan shug'ullanishga bo'lgan huquqini xalqaro darajada e'tirof etilishi va tan olinishi to'g'ri bo'ladi degan yakuniy xulosaga kelinadi.

**Xulosalar.** Yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonning tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini amalda ro'yobga chiqarish uchun uning mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq huquqiy asoslar mustahkamlanishi talab etiladi. Bu masalada milliy qonunchilishimizda ko'plab huquqiy kafolatlarni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro va mintaqaviy hujjatlardagi shaxsning mulkka egalik qilish bilan bog'liq normalar xalqaro darajada fuqarolarning iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan huquqlarini himoyalash uchun asos vazifasini o'taydi. Bundan tashqari milliy qonunchilik tizimining har bir sohasida fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini himoya qilishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Ularning tub maqsadi fuqarolarning ushbu huquqini ta'minlash va muhofaza qilishga qaratilganligini alohida e'tirof etish darkor.

Ijtimoiy nematlarni ishlab chiqarishning davlat-monopoliya usuli tubdan rad etilgan zamonaviy sharoitda tadbirkorlik faoliyati huquqining universalligi tamoyili barcha voyaga etgan fuqarolardan, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan o'z huquqlari sifatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, yollanma xodimlarni jalb qilish, ssuda kapitalidan foydalanish uchun real hamda davlat va jamiyat tomonidan muhofaza qilinadigan imkoniyatlar ta'minlanishi shart.

Mamlakatimizda mulk huquqining ishonchli huquqiy himoyasi mexanizmi va kafolatlarning mustahkamlanishi har bir fuqaroga ertangi kunini yanada rivojlantirishga, yanada yaxshilashga, o'z mol-mulkidan xavotirsiz bo'lishiga, ushbu mol-mulkni ko'paytirish maqsadida barcha uchun foydali iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan shug'ullanish huquqini amalga oshirishga xizmat qiladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Frequently Asked Questions on Economic, Social and Cultural Rights. Human rights Fact sheet №3. Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. Printed at United Nations, Geneva ISSN 1014-5567 GE.08-44591–December 2008. – P.18.
2. Jahel Queralt and Bas van der Vossen. Economic liberties and human rights. First edition. Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.1. DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203701089>. Available at: Accessed 23 Jan. 2024.
3. José E. Alvarez. Property Rights as Human Rights. In book: Queralt, Jahel; Van der Vossen, Bas. Economic Liberties and Human Rights. Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.17. Available at: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3150903](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3150903)

4. Dan Moller. Global Justice and Economic Growth Ignoring the Only Thing That Works. Book: Economic liberties and human rights. Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.107. Available at: <https://static1.squarespace.com/static/5f80be5a21d29366e84a124e/t/606103e471dbfd67c7175327/1616970725705/GrowthProofs+copy.pdf>
5. Muhammed Habib Dolgun. Property rights according to the qurʼān and sunnah and their economic implications for contemporary societies ISRA International Journal of Islamic Finance; Kuala Lumpur. S. 8, Vol. 1, 2016. – P.95. Available at: <https://www.proquest.com/docview/1929694002?sourcetype=Scholarly%20Journals>
6. Cheneval, Francis. Entrepreneurial Rights as Basic Rights. In book: Queralt, Jahel; Van der Vossen, Bas. Economic Liberties and Human Rights. Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.114. Available at: <https://www.zora.uzh.ch/id/eprint/171244/>
7. “Universal Declaration of Human Rights.” *BMJ: British Medical Journal*, vol. 315, no. 7120, 1997. – P.1455. *JSTOR*, <http://www.jstor.org/stable/25176384>. Accessed 23 Jan. 2024.
8. “International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination.” *The American Journal of International Law*, vol. 60, №. 3, 1966 – P. 654. Available at: *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/2197279> Accessed 12 Jan. 2024.
9. Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General comment No. 26 on Land and Economic, Social and Cultural Rights. 2022. – P.2. Accessed 06 Feb. 2024. Available at: <https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/ec12gc26-general-comment-no-26-2022-land-and>
10. Karol C. Boudreaux. Addressing Land Rights in the Human Rights Framework. In book: Queralt, Jahel; Van der Vossen, Bas. Economic Liberties and Human Rights. New York and London: Routledge, Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.275. Available at: <https://www.taylorfrancis.com/books/edit/10.4324/9780203701089/economic-liberties-human-rights-jahel-queralt-bas-van-der-vossen>
11. Tinker Catherine. “Human Rights for Women: The U. N. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women.” *Human Rights Quarterly*, vol. 3, no. 2, 1981. – P.37. Available at: *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/761855>. Accessed 12 Jan. 2024.
12. Martha Alter Chen. Economic Rights of the Informal Self-Employed. In book: Queralt, Jahel; Van der Vossen, Bas. Economic Liberties and Human Rights. New York and London: Routledge, 114-132. Taylor & Francis, Routledge publication. New York. 2019. – P.282. Available at: <https://www.taylorfrancis.com/books/edit/10.4324/9780203701089/economic-liberties-human-rights-jahel-queralt-bas-van-der-vossen>
13. Schwelb Egon. “The Protection of the Right of Property of Nationals under the First Protocol to the European Convention on Human Rights.” *The American Journal of Comparative Law*, vol. 13, no. 4, 1964. – P.519. Available at: *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/838427> Accessed 23 Jan. 2024.
14. European Court of Human Rights. Guide on Article 1 of Protocol No. 1 to the European Convention on Human Rights. Protection of property. This Guide was originally drafted in English. It is updated regularly and, most recently. 2022. – P.14. Available at: [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Guide\\_Art\\_1\\_Protocol\\_1\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Guide_Art_1_Protocol_1_ENG)
15. The right to property. A guide to the implementation of Article 1 of Protocol No. 1 to the European Convention on Human Rights. Human rights handbooks, No. 4. Printed in Germany. 2003. – P.6.

16. "COUNCIL OF EUROPE: EUROPEAN SOCIAL CHARTER (REVISED)." *International Legal Materials*, vol. 36, no. 1, 1997. – P.41. Available at: JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20698638>. Accessed 12 Jan. 2024.
17. "AMERICAN CONVENTION ON HUMAN RIGHTS." *International Legal Materials*, Vol. 9, № 1, 1970. – P.107. Available at: JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20690582>. Accessed 11 Jan. 2024.
18. Alejandro Fuentes,. "Judicial Interpretation and Indigenous Peoples' Rights to Lands, Participation and Consultation. The Inter-American Court of Human Rights' Approach." *International Journal on Minority and Group Rights*, vol. 23, no. 1, 2016. – P. 67. Available at: JSTOR, <https://www.jstor.org/stable/26557832>. Accessed 7 Feb. 2024.
19. Ely, J. W. *Property rights in American history: From the colonial era to the present*. New York, NY [u.a.] : Garland Publ. 1997. – P.154.
20. Gerald Friedman. *The Sanctity of Property Rights in American History*. University of Massachusetts Amherst Political economy research institute. Workingpaper series. Number 14. 2001. – P.3.
21. "ORGANIZATION OF AFRICAN UNITY: BANJUL CHARTER ON HUMAN AND PEOPLES' RIGHTS." *International Legal Materials*, vol 21. № 1, 1982. – P.62. Available at: JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20692392> Accessed 11 Jan. 2024.
22. Rachel Murray. *The African Charter on Human and Peoples' Rights A Commentary*. Oxford university press. 2019. – P.367.
23. African commission on human and peoples' rights. *Principles and guidelines on the implementation of economic, social and cultural rights in the african charter on human and peoples' rights*. 2002. – P.22. Available at: <http://archives.au.int/handle/123456789/2063>
24. *Regional Treaties, Agreements, Declarations and Related, Commonwealth of Independent States Convention on Human Rights and Fundamental Freedoms*, 26 May 1995, Available at: <https://www.refworld.org/docid/49997ae32c.html> Accessed 12 January 2024.
25. Ofitsialniy sayt Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv. Yediniy reyestr pravovix aktov i dru gix dokumentov. Soglasheniye o podderjke i razvitii malogo predprinimatelstva v gosudar stvax – uchastnikax SNG. Statya 2. 1997. – S.2. URL: <https://cis.minsk.by/reestr2/doc/666#text> Posledneye obrasheniye 08.02.2024.
26. "EUROPEAN UNION (EU): CHARTER OF FUNDAMENTAL RIGHTS OF THE EUROPEAN UNION." *International Legal Materials*, vol. 40, no. 2, 2001. – P.269. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20694096>. Accessed 23 Jan. 2024.
27. Allam, Wael. "The Arab Charter on Human Rights: Main Features." *Arab Law Quarterly*, vol. 28. № 1, 2014. P.47. Available at: JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/43295073>. Accessed 12 Jan. 2024.
28. Muhammed Habib Dolgun. *Property rights according to the Qur'an and sunnah and their economic implications for contemporary societies*. ISRA International Journal of Islamic Finance; Kuala Lumpur. S. 8, Vol. 1, 2016. – P.95. Available at: <https://www.proquest.com/docview/1929694002?sourcetype=Scholarly%20Journals>
29. Abdel-Hameed M. Bashir. "Property Rights, Institutions and Economic Development: An Islamic Perspective", *Humanomics*, Vol. 18 No. 3. 2002. – P. 78. Available at: <https://doi.org/10.1108/eb018877>

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).